


## IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

2022- yil yanvar - iyun oylarida viloyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 3 411,2 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 308,8 mln. AQSH doll.) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, 2021 yilning shu davriga nisbatan 104,7 % ni, shundan xorijiy investitsiyalar va kreditlar 1058,3 mlrd. so‘mni (jamiga nisbatan ulushi 31,0 %) tashkil etdi.


**2022- yil yanvar - iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o‘sish sur’atlari**




2022- yilning yanvar–iyun oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘pi, ya’ni 53,1 % viloyatning 4 ta tumani hissasiga, jumladan Urganch shahri 25,1 %, Urganch tumani 10,7 %, Xonqa tumani 9,0 %, Yangibozor tumani 8,2 % to‘g’ri keladi.

Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. Jumladan, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan Qo‘siko‘pir tumani 2,0 martaga, Urganch tumani 183,3 %, Yangibozor tumani 170,2 %, Xiva tumani 125,7 % va Xiva shahri 120,9 % o‘sish kuzatildi.

## Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar



## Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (% da)



2022- yilning yanvar–iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahri 5818,7 ming so'm (100,7 %), Tuproqqal'a tumani 3557,5 ming so'm (116,0 %) va Yangibozor tumani 3128,1 ming so'm (167,5 % ) qayd qilindi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**  
*(2022-yil yanvar – iyun oylarida)*

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
--	-------------------	--------------------------	---------------------------

<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>3411,2</b>	<b>104,7</b>	<b>100,0</b>
--	---------------	--------------	--------------

*shu jumladan:*

<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>493,1</b>	<b>107,6</b>	<b>14,4</b>
---------------------------------------	--------------	--------------	-------------

byudjet mablag'ları	297,1	117,4	8,7
---------------------	-------	-------	-----

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	42,8	120,9	1,3
---	------	-------	-----

tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'ları	47,1	34,3	1,4
---	------	------	-----

hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	106,1	3,3 m.	3,1
--	-------	--------	-----

<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>2918,1</b>	<b>104,2</b>	<b>85,6</b>
---	---------------	--------------	-------------

korxonalarining o'z mablag'ları	959,2	160,7	28,1
---------------------------------	-------	-------	------

aholi mablag'ları	712,4	111,5	20,9
-------------------	-------	-------	------

xorijiy investitsiya va kreditlar	952,1	78,6	27,9
-----------------------------------	-------	------	------

shundan:

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya	91,0	21,9	2,7
---	------	------	-----


tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'ları	294,4	83,5	8,7
--	-------	------	-----

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi**  
*(2022-yil yanvar-iyun)*

	<i>jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
<b>Jami, mlrd. so‘m</b>	<b>3 411,2</b>	<b>498,5</b>	<b>2912,7</b>
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan foiz ko‘rinishida</i>			
qurilish-montaj ishlari	1 836,5	65,7	51,8
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	1 371,9	27,5	42,4
Boshqa harajatlar	202,8	6,8	5,8


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyat bo‘yicha qurilish – montaj ishlarining ulushi 53,8 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga harajatlar 40,2 % ni hamda boshqa harajatlar ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari**




Viloyatda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning ulushlari 2022 yil yanvar-iyun oylarida mos ravishda 14,5 % va 85,5 % ni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkichlarning ulushlari o‘tgan yilning shu davrida 14,1 % va 85,9 % ni tashkil qildi.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari (ulushi % da)**



2021- yilning shu davri bilan solishtirganda O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar ulushi 2,1 % punktga ko'paygan, mos ravishda Respublika byudjeti mablag'larining ulushi 0,9 % li punktga ko'paygan.

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalari (ulushi, % da)**



## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	<i>Jami investitsiyalar mlrd. so'm</i>	<i>Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i> <i>(mlrd. so'm)</i>					
		<i>Respublika byudjeti</i>	<i>Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi i</i>	<i>Korxona va aholi mablag'i</i>	<i>Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari</i>	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	<i>Tiklanish va tarraqqiyot jamg'armasi</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3411,2</b>	<b>297,1</b>	<b>42,8</b>	<b>1671,6</b>	<b>294,3</b>	<b>952,1</b>	<b>47,1</b>

*Shaharvatumanlar:*


Urganch sh.	857,7	94,1	-	451,3	51,2	108,1	46,9
Xiva sh.	146,3	12,9	-	87,2	12,2	34,0	-
Bog'ot	159,6	8,3	0,3	97,3	18,9	34,9	-
Gurlan	139,3	27,4	0,2	70,3	17,1	24,3	-
Qo'shko'pir	289,7	13,8	0,5	146,8	19,9	108,8	-
Urganch	364,6	62,6	1,5	96,4	33,4	170,5	0,2
Hazorasp	159,4	9,5	10,9	66,4	10,5	61,9	-
Tuproqqal'a	202,3	6,1	11,9	90,1	20,0	74,3	-
Xonqa	307,7	17,2	13,5	112,7	32,6	131,7	
Xiva	188,2	20,3	0,1	98,5	27,4	41,9	-
Shovot	177,4	6,3	2,7	117,5	11,7	39,2	-
Yangiariq	138,4	8,8	1,1	93,2	14,4	20,8	-
Yangibozor	280,6	9,8	0,1	143,8	25,1	101,7	-

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 yilning yanvar-iyun oylarida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiganisbatan % da</i>
<b>Jami:</b>	<b>3411,2</b>	<b>100,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	520,3	15,2
Tog'- kon sanoati	0,7	0,02
Ishlab chiqarish sanoati	936,3	27,4
Elektr energiyasi, gaz va bug' konditsiyalangan xavo	193,1	5,6
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishslash	56,1	1,6
Qurilish	168,4	4,9
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta'mirlash	129,4	3,8
Tashish va saqlash	369,2	10,8
Ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar	26,0	0,7
Axborot va aloqa	17,5	0,5
Moliya va sug'urta faoliyati	6,3	0,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	29,6	0,9
Ta'lim	127,2	3,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	67,9	2,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	15,7	0,5
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	469,0	14,5
Boshqa faoliyat turlari	268,5	7,8

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 67,9 % dan ortig'i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo'naltirildi: ishlab chiqarish sanoati (27,4), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (15,2 %), jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar (14,5 %) va tashish va saqlash (10,8%).

**2022 yilning yanvar – iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi**



**Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar**

2022 yilning yanvar–iyun oylarida 478,9 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 43,6 mln. AQSH doll.) yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 125,5 % asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi.


Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Yangiariq tumanida (62,2 %), Qo‘siko‘pir tumanida (10,4 %), Urganch shahrida(6,3 %) kuzatildi.

**2022 yilning yanvar–iyun oylarida xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirish,  
kreditlarni qo‘sghan holda**

	<i>Xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, mlrd. so‘m</i>		<i>Xorijiy investitsiyalar, nisbatan % da</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan, kreditlar</i>	<i>jamiga</i>	<i>asosiy kapitalga investitsiyalar</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>1093,2</b>	<b>953,6</b>	<b>100,0</b>	<b>32,0</b>
<i>shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	214,3	124,3	19,6	6,3
Xiva sh.	34,0	34,0	3,1	1,0
Bog‘ot	34,9	34,9	3,2	1,0
Gurlan	24,3	24,3	2,2	0,7
Qo‘siko‘pir	108,8	108,8	9,9	9,9
Urganch	170,5	162,0	15,6	5,0
Hazorasp	61,9	62,0	5,2	1,8
Tuproqqał'a	74,3	74,3	6,8	2,2
Xonqa	131,7	131,7	12,0	3,9
Xiva	41,9	41,9	3,8	1,2
Shovot	58,2	19,0	5,3	1,7
Yangiariq	103,6	101,7	9,5	3,0
Yangibozor	34,9	34,9	3,2	1,0

Viloyatda xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 32,0 % ni tashkil qildi. Eng ko‘p ulushlar Qo‘siko‘pir tumani (9,9 %) va Urganch shahrida (6,3 %) ga to‘g‘ri keladi. Eng kam ulush Gurlan tumaniga (0,7 %) ga to‘g‘ri kelmoqda.

## Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (mlrd. so'm)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarni 10,0 %, ya'ni 106,2 mlrd. so'm (9,5 mln. AQSH doll.) O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar, 90,0 foizi xorijiy investitsiyalar 952,1 mlrd. so'm (86,9 mln. AQSH doll.), shundan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 91,0 mlrd. so'm (8,2 mln. AQSH doll.)ni tashkil qildi.

### Ijtimoiy soha ob'ektlarini qurish

2022 yil yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 413,0 ming kv.m. bo'lgan 1635 ta (2021 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 126,8 %) shu jumladan qishloq joylarida 374,2 ming kv.m. (147,3 %) uy-joy foydalanishga topshirildi. Turar joy qurilishiga o'zlashtirilgan investitsiyalar 483,8 mlrd. so'mni yoki jami investitsiyalardagi ulushi 14,2 % ni tashkil qildi.

**2022 yil yanvar – iyun oylarida ishga tushirilgan turar joylar**

	<i>Barcha moliyalashtirish hisobidan:</i>			
	<i>Ishga tushirildi</i>		<i>Ulardan yakka tartibdagи turar joylar</i>	
	<i>ming kv.metr</i>	<i>2021 yil mos davriga nisbatan % da</i>	<i>ming kv.metr</i>	<i>2021 yil mos davriga nisbatan % da</i>
<b>Xorazmviloyati</b>	<b>413,0</b>	<b>121,0</b>	<b>410,2</b>	<b>126,8</b>
<i>Shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	26,4	39,4	26,4	53,8
Xiva sh.	12,4	240,4	12,4	240,4
Bog‘ot	33,6	111,9	33,6	111,9
Gurlan	29,0	80,8	29,0	80,8
Qo‘siko‘pir	35,9	109,3	35,9	109,3
Urganch	46,5	211,6	45,1	205,1
Hazorasp	26,6	168,6	26,6	168,6
Tuproqqa'l'a	9,9	132,9	9,9	132,9
Xonqa	40,4	148,9	40,4	148,9
Xiva	45,1	271,6	43,7	263,0
Shovot	29,0	107,9	29,0	107,9
Yangiariq	36,5	161,3	36,5	161,3
Yangibozor	41,6	130,4	41,6	130,4

**Yangi qurilish va rekonstruksiya hisobiga turar joylar va ijtimoiy ob'ektlarni  
ishga tushirish**

	<i>Barcha moliyalashtirish hisobidan:</i>			
	<i>Ishga tushirildi</i>		<i>2021-yilning mos davriga nisbatan % da</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylardi</i>	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan qishloq joylardi</i>
Turar joylar umumiyl maydoni, ming kv.metr	<b>413,0</b>	<b>374,2</b>	<b>121,0</b>	<b>148,4</b>
ulardan:				
yakka tartibdagi turar joylar	410,2	371,3	126,8	147,3
Namunaviy loyihalar asosida qurilgan yakka tartibdagi turar joylar	2,8	2,8	54,9	X
Poliklinikalar (QVPlarni qo'shgan holda), qatnov	-	-	-	-
Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar, o'quvchi o'rni	210	210	x	X
Suv tarmog'i, km	-	-	-	-
Gaz tarmog'i, km	-	-	-	-


Ichimlik suvi tarmoqlari qurilishiga 2022 yilning yanvar-iyun oylarida investitsiya o'zlashtirilmadi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 2022 yilning yanvar-iyun oylarida investitsiya o'zlashtirilmadi.

## **Qurilish ishlari**


2022 yil yanvar-iyun oylarida 2019,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etdi.

### **Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari o‘sish sur’ati**



Qurilish ishlari bo‘yicha yuqori o‘sish sur’atlari quyidagi shahar va tumanlarda: Hazorasp tumani 155,4 %, Tuproqqa'l'a tumani 117,7 % va Shovot tumani 112,6 % o‘sish kuzatildi.

### **Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi (ming so‘mda)**




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

	yanvar-iyun	
	2021- y.	2022- y.
<b>Qurilish ishlari, mldr. so'm</b>	1 641,9	2019,3
<i>shu jumladan:</i>		
davlat	86,6	109,4
nodavlat	1555,3	1909,9

Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 1909,9 mldr. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,6 % ni (2021 yil yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 122,8 %) tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi (mldr. so'm)



Qurilish ishlari umumiyligi hajmining 73,0 % binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, 19,8 % fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari va 7,2 % ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi. Shu jumladan, umumiyligi hajmdan 77,8 % yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish hajmiga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari mulkchilik shakllari bo‘yicha

	<i>Jami, mlrd.so‘m</i>	<i>shu jumladan mulkchilik shakllari bo‘yicha, jami hajmga nisbatan % da</i>	
		<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2 019,3</b>	<b>5,4</b>	<b>94,6</b>
Urganch sh.	173,7	1,7	17,4
Xiva sh.	48,7	0,4	5,8
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	54,4	0,3	5,4
Gurlan	48,4	0	5,1
Qo‘siko‘pir	50,5	0,3	6,0
Urganch	63,1	0,6	8,7
Hazorasp	48,1	0,4	6,5
Tuproqqa'l'a	38,4	0,4	4,4
Xonqa	58,0	0,3	8,0
Xiva	73,8	0	11,3
Shovot	45,5	0,4	6,4
Yangiariq	38,6	0,3	4,4
Yangibozor	30,7	0,3	5,2

**Shahar va tumanla rkesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)**

	<i>Qurilish ishlari, xizmatlar jami</i>	<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari:</i>		
		<i>Bino va inshootlar qurilishi</i>	<i>Fuqarolik qurilishi ob’ektlari</i>	<i>Ixtisos- lashtiril-gan qurilish ishlari</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2019,3</b>	<b>1473,2</b>	<b>400,8</b>	<b>145,3</b>
Urganch sh.	394,1	218,5	130,2	36,2
Xiva sh.	139,8	79,5	34,4	11,1
<i>tumanlar:</i>				
Bog‘ot	111,1	86,2	22,0	8,8
Gurlan	113,2	83,1	5,0	14,7
Qo‘siko‘pir	143,2	98,2	26,9	3,7
Urganch	175,1	124,1	36,6	26,0
Hazorasp	137,6	130,1	8,4	1,3
Tuproqqal'a	74,4	58,6	29,8	5,8
Xonqa	173,4	119,5	39,1	9,2
Xiva	215,0	199,5	21,1	6,8
Shovot	117,0	112,1	9,9	16,8
Yangiariq	109,2	87,1	8,0	0,3
Yangibozor	115,9	76,5	29,3	4,6

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy qismi bino va inshootlar qurilishi (1 473,2 mlrd. so‘m) ga to‘g‘ri kelib, viloyat umumiy hajmida 73,0 % ni tashkil qildi. Shu bilan birga, fuqarolik qurilishi (400,8 mlrd. so‘m) ob’ektlari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari viloyat umumiy hajmining 19,8 % ni hamda ixtisoslashtirilgan qurilish (145,3 mlrd. so‘m) ishlari 7,2 % ni tashkil etdi.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Nomoliyaviv aktivlarga kiritilgan investitsiyalar** – bu real mablag‘larni yaratishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, kapital ta’mirlashga xarajatlar, nomoddiy aktivlarga kiritilgan investitsiyalar (patentlar, litsenziyalar, dasturiy mahsulotlar, er maydonlaridan va tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari va boshqalar).

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarga** - barcha turdagи qurilish ishlariga qilingan xarajatlar; asbob-uskunalarini montaj qilish bo‘yicha xarajatlar; mashina, asbob-uskunalar (montaj talab etiladigan va talab etilmaydigan), transport vositalari, jihoz va xo‘jalik inventarini sotib olish; boshqa kapital ishlar va xarajatlar kiradi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ilgari boshqa tashkilotlarning asosiy fondlarida hisobga olingan asbob-uskunalar, binolar va inshootlar (yoki ularning ehtiyyot qismlari)ni sotib olishga qilingan xarajatlarsiz keltirilgan.

**Chet el investitsiyalari** – asosan kelgusida foyda olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan chet el kapitali.

**Investorlar** – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat sub’ektlari hisoblanadi.

**To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar** – bu korxonaga to‘liq egalik qiluvchi yoki korxona aksionerlik kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan qismini nazorat qiluvchi, ya’ni korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqigi ega bo‘lgan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan kiritilgan investitsiyalar.

**Buyurtmachilar** – investitsion jarayonning qatnashchilari. Buyurtmachi sifatida investoring o‘zi, shuningdek investor tomonidan amaldagi korxonalarini, binolarni, inshootlarni yangi qurilishi, qayta ta’mirlash, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishni amalga oshirishlari uchun vakil etib tayinlangan jismoniy va yuridik shaxslar faoliyat ko‘rsatishlari mumkin. SHu bilan birga buyurtmachi investitsion jarayon qatnashchilarining tadbirkorlik va boshqa faoliyatiga, agarda ular orasidagi shartnomada nazarda tutilmagan bo‘lsa aralashmasliklari lozim.

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarini montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.